



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 30-oktabr

606-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 29-oktyabrda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahalla yettiligi” tavsiyasi asosida kambag‘allikdan chiqarish dasturiga kiritilgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj bo‘lgan shaxslarga ipoteka kreditini ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2024-yil 21-oktabrdagi 691-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 512-6-0-Q/24-sonli qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahalla yettiligi” tavsiyasi asosida kambag‘allikdan chiqarish dasturiga kiritilgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj bo‘lgan shaxslarga ipoteka kreditini ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2024-yil 21-oktabrdagi 691-son hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 29-oktyabrdagi 512-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 29-oktyabrdagi 512-6-0-Q/24-sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 21-oktabrdagi 691-son qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2024-yilda ipoteka kreditlarini ajratish mexanizmlarini takomillashtirish va aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 30-apreldagi PF-70-son Farmonida “mahalla yettiligi” tavsiyasi asosida kambag‘allikdan chiqarish dasturiga kiritilgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj bo‘lgan shaxslarga ipoteka kreditlarini ajratish amaliyotini joriy etish belgilanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinganligi;

quyidagilarni nazarda tutuvchi “Mahalla yettiligi” tavsiyasi asosida kambag‘allikdan chiqarish dasturiga kiritilgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj bo‘lgan shaxslarga ipoteka kreditini ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi:

yakka tartibdagi uy-joyni qurish, rekonstruksiya qilish va ta‘mirlash maqsadlari uchun O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy stavkasidan to‘rt foiz bandga yuqori stavkada 120 million so‘mgacha miqdorda, 20 yilgacha muddatga ipoteka kreditlarini ajratishi;

ipoteka krediti bo‘yicha dastlabki badalning bir qismini qoplash uchun ajratiladigan kreditning 15 foizi miqdorida hamda foiz to‘lovlarining bir qismini qoplash uchun kredit muddatining birinchi besh yili davomida 12 foizdan oshgan qismiga subsidiya to‘lab berishi;

ipoteka kreditlari va ular bo‘yicha subsidiyalarni rasmiylashtirish hamda ajratish tartibi;

belgilanishicha:

kambag‘allikdan chiqarish dasturiga kiritilgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj bo‘lgan shaxslarga ipoteka kreditlari O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining mablag‘lari hisobidan, qoida tariqasida, “Agrobank” ATB, AT “Xalq banki”, “Mikrokreditbank” ATB va “Biznesni rivojlantirish banki” ATB tomonidan ajratilishi;

kambag‘allikdan chiqarish dasturiga kiritilgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj bo‘lgan shaxslarga yakka tartibdagi uy-joyni qurish, rekonstruksiya qilish va ta‘mirlashda kadastr pasportini rasmiylashtirish va ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish bilan bog‘liq to‘lovlar qiymati 50 foizga kamaytirilishi;

yakka tartibdagi uy-joyni qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash uchun ajratilgan ipoteka kreditlari bo'yicha dastlabki badal va foiz xarajatlarining bir qismini qoplash uchun subsidiyalar "subsidyplatform.mf.uz" to'lov platformasi orqali ajratilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (Z.Axmadjonov), O'zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo'limi (O.Qodirov), tumandagi tijorat banklari "mahalla yettiligi" bilan birgalikda kambag'allikdan chiqarish dasturiga kiritilgan va yakka tartibdagi uy-joyni qurish, rekonstruksiya qilish hamda ta'mirlashga ehtiyoji bo'lgan fuqarolarga ipoteka kreditlarini ajratish va ularning maqsadli o'zlashtirilishi jarayonini samarali tashkil etish, kredit olgan fuqarolarning daromadli doimiy mehnat faoliyati bilan band bo'lishlarini ta'minlash choralarini ko'rib borsin.

4. Axborot xizmati (Sh.KenjayeV) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 21-oktabrdagi 691-son qarori maqsadi, vazifalari va undan kutilayotgan natijalarni ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish ishlarini tashkil qilsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya- iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari – iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov